



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR**  
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
2026-yil 30-aprel



**OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA KREATIV YONDASHUV ASOSIDA  
TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISHNING DIDAKTIK  
ASOSLARI**

**Sultonov Sherzod Elmuratovich**  
*p.f.b.f.d (PhD)*  
*Qoʻqon DU assistent-oʻqituvchisi*

**Annotatsiya.** *Ushbu tezisda oliy ta'lim muassasalarida kreativ yondashuv asosida mustaqil ta'limni tashkil etishning didaktik imkoniyatlari xususida ma'lumotlar aks ettirilgan. Mustaqil ta'lim o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriyada hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyat ekanligi ta'kidlangan. Mustaqil ishlar didaktik maqsadi, vazifasi, murakkablik darajasi, kimga (individual yoki jamoa uchun) mo'ljallanganiga qarab bir-biridan farq qiladi. Bundan tashqari, talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishda kreativlik usullaridan foydalanish juda muhim sanaladi.*

**Tayanch soʻzlar:** *mustaqil ta'lim, didaktika, kreativ yondashuv, mustaqil ta'lim jarayoni, innovatsion ko'nikma, interfaol metodlar, tizimli yondashuv, tafakkur, darslik, pedagogik texnologiya, didaktika, hamkorlikdagi ta'lim, ta'lim sifati samaradorligi.*

**Kirish.** Malakali kadrlar tayyorlashning muhim omillaridan biri – bu ta'lim sifati va samaradorligini oshirishdir. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida ta'lim xizmatlari sifatini oshirish hamda jamiyatni rivojlantirish bo'yicha muhim vazifalarni belgilab berdi. Xususan, prezidentimiz mamlakat salohiyati bilim va tafakkurda ekanligiga urg'u berib, "Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'li" ekanligini ta'kidlab o'tdi. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda o'qitishning zamonaviy usullari, shakl hamda vositalari, o'yin texnologiyalari, muammoli o'qitish, xususan, mustaqil ta'limning noan'anaviy metodlari ham muhim o'rin egallaydi. Mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalarida talabalarning nazariy va amaliy mustaqil ta'lim olishlari uchun katta imkoniyatlar yaratilgan. Mustaqil ta'lim olishda talaba o'zi mustaqil ravishda adabiyotlar, darsliklar, gazeta va jurnallar, radio va televideniye, elektron darsliklar, o'quv qo'llanmalari, internet resurslari, Ziyonet materiallari va o'quv-uslubiy majmualardan foydalanishi nazarda tutiladi.

**Asosiy qism.** Mustaqil ta'lim o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriyada va auditoriyadan tashqarida ijodiy hamda mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir. Mustaqil ishlar didaktik maqsadi, vazifasi, murakkablik darajasi,



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR**  
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
2026-yil 30-aprel



kimga (individual yoki jamoa uchun) mo'ljallanganiga qarab bir-biridan farq qiladi. Bundan tashqari, talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishda kreativlik usullaridan foydalanish juda muhim sanaladi. Kreativlik (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor) individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlari, zehni o'tkirligini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Amerikalik psixolog P.Torrens fikricha, "kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o'zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlikni ifodalaydi". Kreativ yondashuv deganda, ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- asosiy e'tibor ijodiy ishga qaratilishi;
- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;
- o'qish shiddati ta'lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi; – ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Kreativ yondashuv talabalarning bir-birlari bilan, o'qituvchi, dialog, ta'lim, ishbilarmon va rolli o'yinlar shaklida turli xil axborot manbalari bilan faol samarali hamkorligi, yangi ijtimoiy va professional tajribani o'zlashtirish uchun o'quv (kasbiy) vazifalarni hal etishga asoslangan aniq vaziyatlarni tahlil qilish sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqotlarni tahlil qilish asosida kreativ o'qitish usullarining (metodlari) boshqa guruh usullaridan ajralib turadigan xususiyatlari aniqlandi:

- faoliyatning guruhiy tarkibi;
- talabalarni guruh faoliyatida o'quv va kasbiy vazifalarni hal qilishda o'zaro muloqotga jalb qilish: "talaba-talaba", "talaba-o'qituvchi", "talaba-kompyuter", "talaba-kitob"; o'zaro munosabatlar subyektlarining konstruktiv, teng huquqli muloqotiga yo'naltirilgan;
- turli madaniy matnlar (diagramma, grafik, formulalar, vazifa, ilmiy, badiiy matnlar, internet va boshqalar) bilan ishlashga yo'naltirilganligi;
- o'zaro hamkorlikning faol ishtirokchilari;



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR**  
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
2026-yil 30-aprel



– natija olish uchun konstruktiv mahsulotni (natijalarni) va guruhlarning oʻz-oʻzini boshqarishini taʼminlaydigan taʼsir doirasini tashkil etish;

– kreativ yondashuv usullarining gumanitar tabiati, kommunikativ vaziyatlarni yaratish, muhim kasbiy muammolarni hal qilish, koʻplab kasbiy pozitsiyalarning paydo boʻlishi va qabul qilinishi, refleksiya (guruhli va individual).

O.A.Qoʻysinovning fikriga koʻra, “mustaqil taʼlim olish maqsadini belgilash va uning oʻquvchilarda mustaqil bilim olish, mustaqil ishlash, ijodkorlik, egallagan bilimlarni amaliyotda qoʻllash, oʻz-oʻzini nazorat qilish koʻnikma va imkoniyatlarini shakllantirish umumiy kasbiy rivojlanishni taʼminlashga asos boʻladi”.

N.A.Muslimovning fikricha, “mustaqil taʼlim – bilimlarni oʻzlashtirish, tasavvurlarini rivojlantirish tushunchalari, koʻnikma va malakalarini hosil qilish boʻyicha oʻquv jarayonining subyektiv maqsadga muvofiq, muntazam, mustaqil hamda avtonom faoliyatni tashkil etish demakdir”.

Professorlar R.X.Djurayev va S.T.Turgʻunovlarning qayd etishicha, “mustaqil taʼlim – bu insonning oʻzi tanlagan vositalar hamda adabiyotlar yordamida ajdodlar tajribasini, fan va texnika yutuqlarini oʻrganishga yoʻnaltirilgan shaxsiy harakatlar jarayoni. Bunda insonning ichki dunyosi, his-tuygʻulari, mustaqil fikrlash qobiliyati asosiy roʻl oʻynaydi”. Har qanday oʻquv fani boʻyicha darsliklarning asosiy didaktik ashyosi matnlar, savol topshiriqlar, mashqlar yoki misol-masalalar hisoblanadi. Taʼlim oluvchini mustaqil fikrlashga oʻrgatishda darslik, oʻquv qoʻllanmalar va taʼlim beruvchining alohida-alohida ahamiyatini taʼkidlash shart emas, balki uni mavzudagi ilgʻor fikrlar, ilmiy xulosalar, amaliy haqiqatlar, voqea-hodisa yoki inson shaxsiga oʻz munosabatini bildirishga yoʻnaltirish kerak boʻladi.

Mustaqil taʼlim – bu taʼlim muassasalarida fanlardan shunday bilim olish turiki, bunda talabalarning oʻz oldilariga kreativ yondashuv asosida turli taʼlim metodlari asosida u yoki bu vazifalarni, maqsadlarni ongli ravishda qoʻyishi, oʻz faoliyatini rejalashtirishi va uni amalga oshirishi hamda oʻzini baholay olish qobiliyatlari bilan aniqlanishidir.

Mustaqil taʼlim jarayoni talabalarning oʻquv-tarbiya jarayonida mustaqil faoliyatini auditoriyada, auditoriyadan tashqari va mustaqil ravishda tashkil etishga yoʻnaltirilgan jarayondir. Mustaqil fikr yuritishga, aqliy va ijodiy faollikka erishishga qaratilgan mashgʻulot turi mustaqil taʼlim bilan bogʻliq boʻladi. Mustaqil taʼlimning asosiy masalasi ham aynan talabaning dars va darsdan soʻnggi faoliyati faolligini taʼmin etishga yoʻnaltirilgan shart-sharoit, erkin fikr va kasbiy masʼuliyatni his qilishni taʼmin etishga qaratilgan ijodiy jarayondan iborat. Demak, fikr-shaxsning faoliyat jarayonidagi bilimi, tajribasi, qobiliyati va kuch-qudratini namoyon etadigan maʼnaviy-kasbiy sifatidir. Fikr tarbiyasiga qaratilgan ilmiy-amaliy manbalar eng qadimgi yozma yodgorliklardan boʻlmish “Avesto”da ezgu fikr, ezgu soʻz va ezgu amal koʻrinishida oʻz ifodasini topgan. Sharqning buyuk allomalari boʻlmish Al-Buxoriy, At-Termiziy, Margʻiloniy, Mahmud Qoshgʻariy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Saʼdiy Sheroziy, Alisher Navoiy, Bobur, Mahmudxoʻja Behbudiy, Abdurauf Fitrat,



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR**  
**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**  
**2026-yil 30-aprel**



Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlarimizning ijodiy faoliyatida bu borada chuqur fikr mulohazalar yuritilgan. Mustaqil ta'lim va uning ma'naviy-kasbiy mohiyati bo'yicha konseptual yondashuvlar D.Krotval (AQSh), A.Dobrolskiy, V.Okon (Polsha), P.Galpern, K.Talizina, V.Buryak, S.Bondorenko, V.Slastenin, Y.Shiyanov (Rossiya), S.Rajabov, X.Ibragimov, M.Ochilov, N.Saidahmedov, O'.Tolipov, X.To'raqulov, M.Quronov (O'zbekiston) va boshqalarning ishlarida bayon etilgan. Ammo mustaqil ta'limga bo'lgan innovatsion yondashuvlar bugungi islohotlar talabi darajasida to'laqonli o'z yechimini topgan emas. Talabalarning mustaqil ta'limini yo'lga qo'yishga qaratilgan ta'lim prinsiplari, qonuniyatlar hamda uni amalga oshiruvchi interfaol metodlar metodikasi to'liq modernizatsiya qilinmagan. Bu borada ilgari surilgan pedagogik g'oyalarni generatsiyalash hamda uni yaxlit tizim holiga keltirish muammosi hal etilmagan. G'oyalar integratsiyasi jarayonida mustaqil ta'lim texnologiyasining o'rnini hozircha pedagogik jihatdan alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan. Shunga ko'ra, bugungi kunda bizning asosiy maqsadimiz ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi talablariga muvofiq kreativ yondashuv asosida mustaqil ta'lim texnologiyasi asosida talabalarning erkin ijodiy tafakkuri va shunga qaratilgan pedagogik g'oyalar samaradorligini kafolatlovchi ta'lim mazmunini takomillashtirishga erishishdan iborat. Ma'lumki, mustaqil ta'limni yo'lga qo'yishda nafaqat talablarni muayyan fan bo'yicha bilim ko'nikma va malakalarini oshirish, ularda mustaqil dunyoqarashni shakllantirish, shu bilan bir qatorda, bo'lajak mutaxassis sifatida talaba shaxsida ijodiy va ilmiy tafakkurni rivojlantirish vazifasi turar ekan, ma'lum ma'noda global professionallik masalasi ham o'z tasdig'ini topmog'i lozim. Bu jarayondagi ijodiy texnologik yondashuv talabadan tezkor fikrlashni va faol harakatni talab qiladi. Chunki talabadagi faollik ijodiy faoliyatga aylangan taqdiridagina mehnatni ilmiy tashkil qilish, vaqt byudjetidan unumli foydalanish amalga oshadi. Ana shunda talaba

Hozirgi kundagi an'anaviy o'qitishni quyidagi asosiy xususiyatlari bilan tavsiflash ma'lum:

1. Yangi o'quv materialini deyarli to'laqonli o'qituvchi tomonidan og'zaki bayon etiladi (agar talabalar yetarli boshlang'ich bilimlarga ega bo'lsalar, u holda o'quv jarayonida suhbat usulidan ham foydalanish mumkin).
2. Darslik, asosan, uy vazifasini bajarishda qo'llanadi (ba'zan darslik o'rnini qisman maxsus tayyorlangan ma'ruza matnlari egallashi mumkin).
3. Talabalar bilimini nazorat qilish alohida og'zaki so'rovlar yoki nazorat ishlari yordamida amalga oshiriladi.
4. O'quv jarayonida ko'proq talabalarning mustaqil ishlashi deyarli sezilmaydigan o'qitishning frontal usuli qo'llanadi.

O'quv jarayonini tashkil etishning bunday tizimidagi muhim kamchilik dars jarayonida talabalarning passivligi (sustligi) va bu bilan bog'liq darsning past samaradorligidir. Dars jarayonida talabalarning faolligini oshirish muammosini hal etish ta'limni yakalashtirishning asosiy masalalaridandir. Talabalarning faolligini oshirishda ularning mustaqil bilim olishi



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR**  
**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**  
**2026-yil 30-aprel**



muhim oʻrin tutsa, mustaqil olgan bilim darajasini aniqlash jarayonida esa ularning mustaqil ishlashi turadi. Talabaning mustaqil bilim olishida mustaqil ishlarni tashkil etish uslubiyatining oʻziga xos talablarini hisobga olish zarur. Talabalarning mustaqil ishlashi, asosan, quyidagi uch tur: 1) vazifani oʻqituvchining bevosita ishtirokisiz bajarishi; 2) ulardan oʻquv materialida moʻljallangan ishlarni mustaqil fikrlash natijasida tushunishning talab etilishi; 3) ularga topshiriqni bajarish usullarini va mazmunini tanlashda erkinlik berilishi hamda ishni bajarish vaqt boʻyicha qatʼiy chegaralanmasligi kabi turlarga ajratiladi. “Mustaqil” tushunchasining ikkinchi maʼnosini afzal koʻruvchi olimlar oʻquv ishining frontal yoki yakka tartiblarda tashkil etilishidan qatʼi nazar talabalar mustaqil fikrlashini va qoʻyilgan masalani hal qilishini muhim deb hisoblaydilar. Masalan, bunday fikrlar N.G.Dayrining tadqiqot ishlarida oʻz aksini topgan.

Uchinchi maʼnodagi “mustaqil ishlash” tushunchasini R.G.Lemberg talabalar faoliyatini ikki turga ajratgan holda foydalanishni tavsiya etdi, yaʼni ijro etuvchi va mustaqil bajaruvchi. Ijro etuvchi faoliyat oʻqituvchi koʻrsatmasi boʻyicha oʻtkazilib, mustaqil bilim, malaka va koʻnikmalarning shakllanishi uchun zarur boʻlsa, mustaqil bajaruvchilik faoliyati talabalarning ichki tuygʻulari yordamida yuzaga keladi, yaʼni ular oʻzlarining faoliyat maqsadi va vazifalarini oʻzlari aniqlaydilar”. Asosiy eʼtibor rivojlantiruvchi taʼlimga qaratilgan taʼlimni yakkaLashtirish masalasiga bagʻishlangan ishlardan biri I.B.Zakirovaning rus tilidan mustaqil ishlarni yakkaLashtirish – aqliy tarbiya vositasiga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishidir. Bu tadqiqot ishida mazmuni, xarakteri va hajmi yakkaLashtirilgan masalalardan foydalanilgan boʻlib, bunday oʻqitish oʻquvchilarning aqliy faoliyatiga ijobiy taʼsir qilishi isbotlangan. YakkaLashtirishga doir tadqiqot ishlarining yoʻnalishlaridan biri materialni toʻla oʻzlashtirolmaydigan talabalar bilan yakka holda ishlash imkoniyatlarini aniqlashdir. Koʻp hollarda taʼlim muassasalarida tashkil etilayotgan oʻquv jarayoni bilim darajasi oʻrtacha boʻlgan talabalarga moʻljallanmoqda, talabalar bilan yakka tartibda ishlash, mustaqil oʻrganishga moʻljallangan topshiriqlar boʻyicha metodik ishlanmalarning yoʻqligi, iqtidorli talabaga moʻljallangan topshiriqlarning kamligi koʻzga tashlanmoqda. Shu nuqtayi nazardan

mutaxassislik fanlaridan mustaqil ish topshiriqlarini ishlab chiqish, talabalarning mustaqil bilim olishlarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning samarali yoʻllarini izlashning yechimini topish zarurligi koʻrinib turibdi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining parlamentga murojaatnomasi, 20-dekabr 2022-yil.
2. Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности. – СПб.: СПГУТД, 2006.
3. Muslimov N.A. Kasb taʼlimi oʻqituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fan. dok. diss. – T., 2007. – 315 b.



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR**  
**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**  
**2026-yil 30-aprel**



4. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etish. Metodik qo'llanma. – T.: TDPU, 2006. – 46 b.
5. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. – T: Fan”, 2009. – 168.